

AHOLINING GEOEKOLOGIK OMIL SIFATIDAGI ROLI VA TA'SIRI

Nazarov M.G – *Qarshi davlat universiteti dotsenti*

Rashidova Sh.O' – *Qarshi davlat universiteti talabasi*

Uralova S. J - *Qarshi davlat universiteti talabasi. O'zbekiston.*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada geoekologik omillarning jamiyat va tabiiy muhit rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Ayniqsa, aholining geotizimlarga ta'sirini hamda xo'jalik faoliyatining atrof-muhitga ko'rsatadigan geoekologik ta'siri yoritilgan. Mualliflar aholini muhim geoekologik omil sifatida baholab, inson faoliyati natijasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar, tabiiy resurslardan foydalanish darajasi hamda ekologik muvozanatning buzilish sabablarini ilmiy asosda ochib bergan. Shuningdek, maqolada hududiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda aholi joylashuvi, ekologik madaniyat va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari geoekologiya, ekologiya va hududiy rejalashtirish yo'nalishlarida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *geoekologik omillar, tabiiy omillar, antropogen omillar, geoekologik tizim, eroziya, deflyasiya, sho'rlanish, cho'llashish, botqoqlanish, antropogen ta'sir.*

РОЛЬ И ВЛИЯНИЕ НАСЕЛЕНИЯ КАК ГЕОЭКОЛОГИЧЕСКОГО ФАКТОРА

Назаров М.Г. – *доцент Каршинского государственного университета*

Рашидова Ш.Ў – *студентка Каршинского государственного университета*

Уралова С.Ж. – *студентка Каршинского государственного университета.*

Узбекистан.

Аннотация. *В данной статье анализируется влияние геоэкологических факторов на развитие общества и природной среды. В частности, освещается влияние населения на геосистемы и геоэкологическое воздействие экономической деятельности на окружающую среду. Авторы, оценивая население как важный геоэкологический фактор, научно выявили причины экологических проблем, возникающих в результате человеческой деятельности, уровня использования природных ресурсов и нарушения экологического баланса. В статье также показана важность размещения населения, экологической культуры и рационального использования природных ресурсов для обеспечения регионального развития и экологической стабильности. Результаты исследования имеют научное и практическое значение в областях геоэкологии, экологии и регионального планирования.*

Ключевые слова: геоэкологические факторы, природные факторы, антропогенные факторы, геоэкологическая система, эрозия, дефляция, засоление, опустынивание, заболачивание, антропогенное воздействие.

THE ROLE AND INFLUENCE OF THE POPULATION AS A GEOECOLOGICAL FACTOR

Nazarov M.G. – Associate Professor of Karshi State University

Rashidova Sh.U – Student of Karshi State University

Uralova S. J. - Student of Karshi State University. Uzbekistan.

Annotation. *This article analyzes the impact of geoecological factors on the development of society and the natural environment. In particular, the impact of the population on geosystems and the geoecological impact of economic activity on the environment are highlighted. The authors evaluate the population as an important geoecological factor and scientifically reveal the causes of environmental problems arising as a result of human activity, the level of use of natural resources and the disruption of the ecological balance. The article also shows the importance of population location, ecological culture and rational use of natural resources in ensuring regional development and ecological stability. The results of the study are of scientific and practical importance in the areas of geoecology, ecology and regional planning.*

Keywords: *geoecological factors, natural factors, anthropogenic factors, geoecological system, erosion, deflation, salinization, desertification, waterlogging, anthropogenic impact.*

Geoekologik omillar – (lot. faktor – yaratuvchi, bunyodkor, sababchi – muayyan jarayonni harakatga keltiruvchi, uning hususiyatini yoki ayrim tomonlarini belgilovchi kuch, oqibat) – geoekologik holatni belgilovchi, vujudga keltiruvchi tabiiy va antropogen, dialektik o‘zaro bog‘liq ichki va tashqi jarayonlar. Geoekologik omillarning rang-barangligi ularni o‘rganish maqsadida guruhlashni taqozo etadi. Ularni kelib chiqishiga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1. Tabiiy omillar;*
- 2. Antropogen omillar;*

Tabiiy omillar – tabiiy kuchlar taʼsirida yuz beradigan, geotizimlarning rivojlanishiga, oʻziga xos faoliyatiga, ekologik, barqarorlik va resurs imkoniyatlariga taʼsir etuvchi hodisa va jarayonlardir. Misol uchun, eroziya, deflyasiya, shoʻrlanish, choʻllanish, botqoqlanish, sel, koʻchki, togʻ qulashi, tuproq koʻchishi, zilzila va boshqa omillar hisoblanadi. Geoekologik tadqiqotlarda koʻproq antropogen omillarga eʼtibor qaratiladi. Antropogen omil deganda geoekologik holatga taʼsir etuvchi antropogen hodisa va jarayonlar tushuniladi. Bunday hodisa va jarayonlarni adabiyotlarda antropogen taʼsir, antropogen bosim, antropogen stress kabi nomlash holatlari uchraydi. Fikrimizcha, antropogen taʼsir eng aniq va tushunarli atama boʻlib, insonlarning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyatining geotizimlar strukturasi va oʻziga xos faoliyatiga koʻrsatayotgan taʼsirini anglatadi. Geotizimlarning resurs, ekologik va barqarorlik imkoniyatlariga ega ekanligini hisobga olsak, ularga antropogen taʼsir har xil maqsadlarda boʻlishi mumkin: 1) uning resurs imkoniyatini oshirish, masalan, yerlarni haydash, sugʻorish, mineral oʻgʻitlar solish, turli meliorativ tadbirlar va h.k.; 2) ekologik imkoniyatini oshirish, masalan, manzarali daraxtlar ekish, aholi punktlarini koʻkalamzorlashtirish, tabiiy infeksiya oʻchoqlarini yoʻq qilish, botqoqlarni quritish va boshqalar; 3) barqarorlik imkoniyatini oshirish, masalan, eroziya, deflyasiya, suffoziya, karst, surilma, koʻchki, shoʻrlanish kabi tabiiy geografik jarayonlarning oldini olish va h.k. Tabiiy komponentlarning, shuningdek yonma-yon geotizimlarning oʻzaro bogʻliqligi komponentlardan biriga biror maqsadda qilingan taʼsir koʻpincha boshqa komponentlarga ataylab qilinmagan taʼsirning yuzaga kelishiga olib keladi (suv omborlarini qurish – atrofdagi yerlarni suv bosishiga, yer osti suvlarining olinishi – yer yuzasining choʻkishiga va boshqalar). Aslida, xoʻjalik faoliyatining deyarli barcha turi (ishlab chiqarish, rekreatsion, tabiatni muhofazalash, ilmiy-tekshirish) amalda doimiy yoki vaqti-vaqti bilan geotizimlarga taʼsir etadi. Har qanday xoʻjalik faoliyati geotizimlarning bir maromda rivojlanishiga taʼsir etish bilan kechadi. [1]. Antropogen taʼsir aholi soni va ehtiyojining ortishi hamda texnikaning rivojlanishiga mos holda jadal

sur'atda ortib bormoqda. Mazkur ta'sirning miqyosi, tezligi va boshqa ko'rsatkichlari asosida tabiiy muhit ma'lum darajada o'zgarishga uchraydi. Geotizimlarga ta'sir uning komponentlari yoki butun holati va strukturasi turli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Geotizimlardagi o'zgarish, o'z navbatida, aholining sog'ligi va xo'jalik faoliyatida ijobiy yoki salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Geotizimlarga antropogen ta'sirni tasniflashda adabiyotlarda turlicha yondashilishini, mualliflar uning turli jihatlariga asoslanganligini ko'rish mumkin. Adabiyotlarda mavjud yondashuvlar asosida antropogen ta'sirlarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha guruhlash mumkin:

- ✓ Xo'jalik faoliyati sohalari bo'yicha:
Qishloq xo'jaligi, sanoat, energetika, transport, qurilish, rekreatsiya va boshqalar.
- ✓ Ta'sir shakllari bo'yicha:
Maydonli (keng hududni qamrab oluvchi), chiziqli (yo'l, quvurlar kabi), nuqtali (zavod, shaxtalar va h.k.).
- ✓ Ta'sir davomiyligi bo'yicha:
Doimiy, vaqti-vaqti bilan, mavsumiy ta'sirlar.
- ✓ Ta'sir natijalariga ko'ra:
Ijobiy yoki salbiy oqibatlarga olib keluvchi.
- ✓ Ta'sir amalga oshirilish darajasiga ko'ra:
Maqsadli (rejalashtirilgan) va maqsadsiz (tasodifiy yoki nazoratsiz).
- ✓ Ta'sir jarayoniga ko'ra:
Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri geokomponentga) yoki bilvosita (bilvosita ta'sirlar orqali).
- ✓ Modda va energiya almashinuvi bo'yicha:
Resurslarni olish (eksport), yoki kiritish (import) orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insonlarning geotizimlarga ko'rsatayotgan ta'sirini xo'jalik faoliyati sohalari bo'yicha tahlil qilish eng samarali yondashuvlardan biridir. Aynan shu tasnif yordamida O'zbekiston Respublikasida

geotizimlarga bo'layotgan barcha asosiy antropogen ta'sir turlarini, ularning natijasida ro'y berayotgan sifat va miqdoriy o'zgarishlarni aniqlash mumkin.

Geotizimlarning o'zgarish darajasi bevosita antropogen ta'sirning miqyosi va ko'lamiga bog'liq. Turli xo'jalik sohalari o'ziga xos tarzda tabiiy resurslardan foydalanadi va shu bilan mos geoeologik muammolarni yuzaga keltiradi. Masalan:

- ✓ Lalmi dehqonchilikda – asosiy ta'sir tuproq komponentiga qaratiladi;
- ✓ Chorvachilik va o'rmonchilikda – o'simlik qoplami asosiy o'zgarishga uchraydi;
- ✓ Tog'-kon sanoatida – tog' jinslari va foydali qazilmalar ekspluatatsiya qilinadi.
- ✓ Bunda har bir soha o'ziga xos geoeologik vaziyatlarni shakllantiradi. Shuningdek, ayrim xo'jalik turlari bir nechta tabiiy komponentlarga birgalikda ta'sir ko'rsatadi. Masalan:
 - ✓ Sug'oriladigan dehqonchilikda – suv va tuproq resurslari birgalikda ekspluatatsiya qilinadi;
 - ✓ Sanoat ishlab chiqarishida – tuproq, suv, havo va o'simliklarga ko'plab bosqichlarda ta'sir etiladi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlari – dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik, baliqchilik bevosita tabiiy resurslarning mahalliy manbalariga tayanadi. Landshaftlarning resurs imkoniyatini xo'jalik muomalasiga kiritish katta maydonlarni talab etadi. Shuning uchun bugungi ancha intensiv dehqonchilikka keng masshtabdagi maydonlar tegishlidir. Qishloq xo'jaligi birinchi navbatda bevosita iqlim va relyef omillariga, keyin esa biota va tuproqqa hamda landshaftning boshqa komponentlariga u yoki bu darajada bog'liq bo'ladi. Biota va tuproqda yuz bergan o'zgarish antropogen ta'sir to'xtatilganidan so'ng birlamchi holatiga yaqin holga qaytadi. Qishloq xo'jaligining landshaftlarga ta'siri oqibatida geoeologik vaziyat tubdan o'zgarmaydi. Lekin, mikroiklimning o'zgarishi, sinantrop kemiruvchilarning tarqalishi, landshaftlar estetik sifatlarining yomonlashuvi va

boshqa jarayonlar tufayli atrof tabiiy muhitning sifati u yoki bu darajada pasayishi mumkin. Bugungi intensiv dehqonchilik yerlardan foydalanishda ko'pincha landshaftning butun maydonini qamrab olmoqda. O'zbekiston hududida yerlarni o'zlashtirishning tarixiy o'choqlari daryo vodiylari va tog'oldi tekisliklarida paydo bo'ldi. Bu yerdan esa yuqoriga – tog' yonbag'irlari va adirlarga, pastga – tog' oraliq botiqlari va tekislikka tomon jadal kengayib bordi. Hududning dehqonchilikda o'zlashtirilishi asosan daryo vodiylari va vohalardagi o'simliklarni yo'q qilish hisobiga olib borilgan. Dehqonchilikni keng tarqalishining birinchi bevosita oqibati keng maydonlarda tabiiy biotaning yo'qolishidir. Daryo qayirlari va vohalardagi tabiiy o'simliklar deyarli qolmadi. Landshaftlarni dehqonchilikda o'zlashtirish jarayonida doimiy va bevosita ta'sirga tuproq uchraydi. Qishloq xo'jalik texnikalarining bosimi va ekinlar bilan mineral elementlarning doimiy olinishi tuproq strukturasi, uning fizik-kimyoviy xususiyatlarini yomonlashuviga va unumdorligining yo'qolishiga olib keladi. Mexanizatsiyalashtirish va kimyolashtirish natijasida zamonaviy intensiv dehqonchilik landshaftlarga ta'sir etmoqda. Shudgorlash, o'z-o'zidan tuproqning tabiiy strukturasi buzadi, shunga bog'liq holda uning suvo'tkazuvchanlik va namni saqlash xususiyati ham buziladi. Bu holat o'z navbatida yer usti oqimining kuchayishiga va tabiiy o'simlik qoplaminin etishmasligi oqibatida yuzalatma va chuqurlatma eroziyaning yanada jadallashishiga sharoit yaratadi. Turli ma'lumotlarga ko'ra, Toshkent viloyatida jarlarning umumiy uzunligi 931.4 km. bo'lib, Respublikadagi jarlarning 5.3 % ini tashkil etadi, 138.6 ming gektar maydon irrigatsiya eroziyasiga uchragan. Tog'oldi-tog' rayonlarida qishloq xo'jaligi yerlarining katta qismi eroziya xavfli bo'ladigan yerlarga tegishlidir. Bu hududlarga jar eroziyasi xos, jarlarning zichligi 0.1-2.0 km/km² va ko'proqdir. Jarlarning o'rtacha yillik o'sishi 4.5 m/yil. ni tashkil etadi. So'nggi yillarda ushbu jarayonlarning jadallashuviga sharoit ortib bormoqda: eroziyaga qarshi gidrotexnik inshootlar deyarli qurilmayapti, ixota o'rmonlari ekish keskin qisqardi, agrotexnika qoidalarini buzish hollari ortib bormoqda. Yerlarning agrolesurs imkoniyatini ko'tarish maqsadidagi meliorativ

tadbirlar landshaftlarga ta'sir etishga qaratilgan bo'lib, uning kutilgan ijobiy samarasi juda ko'p hollarda ularning salbiy oqibatlari natijasida yo'qqa aylanadi. Uzoq o'tmishdan beri amal qilib kelinayotgan sug'orish usuli ko'pgina noxush jarayonlarni keltirib chiqarmoqda: eroziya, tuproq strukturasi yomonlashuvi, gumusning yo'qolishi, grunt suvlari sathining ko'tarilishi, ikkilamchi sho'rlanish, botqoqlanish va h.k. O'simliklardan foydalanish jarayonida ham landshaftlarga juda katta zarar yetkaziladi. Maydonning o'simlik qoplami xom ashyo va energetika resurslarining bevosita qayta tiklanish manbai bo'lib xizmat qiladi. [2]. Bunga yana o'rmonlardan rekreatsiya maqsadlarida foydalanishni, qurilish va o'tin uchun qirqishni ham kiritish mumkin. Shuning uchun o'rmon landshaftlarida turli shakldagi antropogen ta'sirlarning murakkablashganini va landshaftlarning shularga mos holda o'zgarganligini kuzatish mumkin.

Geoekologiya nuqtai nazaridan aholi muhim antropogen omil hisoblanadi. Aholi sonining o'sishi, uning hududiy joylashuvi va xo'jalik faoliyati geoekologik tizimlarga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli aholi geoekologik jarayonlarning shakllanishida asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Aholining geoekologik ta'siri bir necha yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Avvalo, aholining son jihatdan ortishi tabiiy resurslarga bo'lgan talabni oshiradi. Bu esa yer, suv, o'rmon va boshqa resurslardan intensiv foydalanishga olib keladi. Natijada ayrim hududlarda resurslarning kamayishi, degradatsiya va ekologik muvozanatning buzilishi kuzatiladi.

Ikkinchidan, aholining hududiy joylashuvi muhim ahamiyatga ega. Aholining zich joylashgan hududlarida ekologik yuklama yuqori bo'ladi. Ayniqsa, yirik shaharlar va sanoat markazlarida atmosfera havosining ifloslanishi, chiqindilar muammosi, suv resurslarining tanqisligi kabi muammolar keskinlashadi.[3]

Uchinchidan, aholining xo'jalik faoliyati geoekologik vaziyatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligida noto'g'ri agrotexnik tadbirlar tuproq eroziyasiga olib keladi, sanoat ishlab chiqarishi esa atrof-muhitning ifloslanishiga sabab bo'ladi. Transport tizimining rivojlanishi ham ekologik yuklamani oshiradi.

Aholining ekologik madaniyati ham muhim omillardan biridir. Agar aholida ekologik ong va madaniyat yuqori bo'lsa, tabiatga ehtiyotkorona munosabat shakllanadi va salbiy ta'sirlar kamayadi. Aksincha, ekologik savodxonlik past bo'lsa, atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyat kuchayadi.

Shu bois geoeologik muammolarni hal etishda aholining roli beqiyosdir. Ekologik ta'limni rivojlantirish, aholi o'rtasida ekologik madaniyatni oshirish, resurslardan oqilona foydalanishni targ'ib qilish muhim vazifalardan hisoblanadi. Aholining ongli ishtiroki orqali geoeologik muvozanatni saqlash va barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Sharipov. Geoeologiya va landshaft ekologiyasi. Darslik. Toshkent-2021 y
2. Jonqobilov I.X. Qashqadaryo viloyati neft-gaz tuzilmalarining geoinidikatsiyasi geoeologik muammolarni hal qilish maqsadida // Avtoref. kand. geogr. nauk. – Toshkent, 1999. – 22 s.
3. Jonqobilov I., Nazarov M., Abdullayev S. Qashqadaryo viloyatining geoeologik xaritalarini tuzish (monografiya). – Qarshi, 2016. – 106 b.